

## OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA KURSANTLARNI SALBIY AXBOROT TA'SIRIDAN HIMOYA QILISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Raxmatov Jasur Xamidulloevich**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi  
IV qo'shinlarini tayyorlash kafedrasi katta o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy harbiy ta'lismuassasalarida mediata'limning ta'limiyyat tarbiyaviy jarayonidagi ahamiyati, mediata'limning o'ziga xos hususiyatlari va uniatashkil etish jarayonida qo'llaniladigan usullar va samaradorligi xaqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, oliy harbiy kursantlarni tayyorlash jarayonining muhim omili hisoblangan harbiy ta'lismi faollashtirishda turli yondashuvlarning o'rni, faol metodlardan foydalanishning yo'llari va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** harbiy didaktika, axborot, media, mediata'lismi, axborot xavfsizligi, mediasavodxonlik, mediamadaniyat, ta'limga yondashuvlar, harbiy ta'lismi jarayonini jadallashtirish, reproduktiv va produktiv ta'lismi, faol ta'lismi.

Harbiy ta'lismi jarayonini tashkil etish, samarali natijalarga erishish sohadagi bugungi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Prezidentimiz Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoev 2018 yil 13 yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqida: "...Qo'shinlar istalgan daqiqada o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi kerak. Ular jangovar tayyorgarlikning yangi tizimi bo'yicha muntazam shug'ullanib borishi, barcha harbiy xizmatchilar haqiqiy professional kadr bo'lishi uchun o'z sohasini puxta egallashi shart ..." , - deb ta'kidladi. Buning uchun esa harbiy ta'lismi jarayonini zamonaviy talablardan kelib chiqib tashkillashtirish lozim. Darhaqiqat, ta'lismi jarayonini tashkil etishda pedagog salohiyati bilan bir qatorda mashg'ulot moddiy ta'minotini sifati ham muhim. Pedagoglar va kursantlarning mashg'ulotga tayyorgarligi, o'zlashtirishi, bilim, ko'nikmalar bilan qurollantirilishida zamon O'talabidan kelib chiqib tayyorlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarga atrofini o'rab turgan olam haqidagi ma'lumot beruvchi asosiy manbalarga esa, matbuot, televidenie, radio, global kompyuter tarmoqlari va boshqalar kiradi. Bugungi yosh avlod ongiga ulkan axborot oqimi ta'sir ko'rsatmoqda, uni majoziy ma'noda "axborot yomg'iri" yoki "axborot seli" deb atash mumkin. Bugungi axborot makonidagi kutilmagan obrazlar, zamonaviy, yorqin tasvirlar, syujetlar va

xatti-harakatlar xali ongi yetarli darajada shakllanmagan yoshlarni albatta ko‘proq o‘ziga jalg qiladi, chunki yosh xususiyatlari va hayotiy tajribaga ega bo‘lmaganligi sababli, bola ulkan ma’lumotlar oqimini qabul qilish va tushunish uchun hali tayyor emas hisoblanadi.

Barchaga ma’lumki bugungi yoshlarning telefon, kompyuter va televizor oldida o‘tkazadigan vaqtлari mакtabda yoki boshqa ta’lim muassasalarida o‘tkazadigan vaqtlaridan ancha ko‘proqni tashkil etadi. Bu ularning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi turli buzuq, ziddiyatli dasturlar, shouлar, saytlarni doimiy ko‘rishlariga ko‘proq imkon beradi, uning nozik ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ular esa bularning turli salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘pincha tushunmaydi. Agar e’tiborimizni qaratsak, faqat ko‘ngilochar saytlar, turli shouлarni tanlaydigan va ko‘radigan yoshlar deyarli yurtimizda va dunyoda bo‘layotgan ta’limiy-tarbiyaviy, ma’naviy-madaniy teledasturlar, ijtimoiy tarmoqlarni ko‘rishdan o‘zlarini chetga olishadi.

Media sohasidagi eng nufuzli tadqiqotchilarining tadqiqot natijalariga asoslanib shuni ta’kidlash mumkinki, ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyatsiya ob’ekti bo‘lib ko‘proq yoshlar tanlanadi, chunki:

- ular axborotning muhim qismini, to‘liq idrok etmaydilar, chunki ular xali uni idrok etishga tayyor emaslar;
- ular xabarlarning ma’nosini yoki bir nechta ma’noga ega bo‘lishi mumkinligini qisman tushunadilar;
- ular ommaviy axborot vositalariga nisbatan passiv pozitsiyani egallaydilar, o‘zlarini ularning ta’siridan qanday himoya qilishni bilmaydilar va ko‘pincha bunday himoya zarurligini tushunmaydilar.

Bugungi kunda axborot xavfsizligi va inson ongini ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyatsiya qilinishidan himoya qilish davrimizning eng asosiy muammosiga aylandi, va bu hozirda ota-onalar, shifokorlar, psixologlar va o‘qituvchilarni tashvishga solmoqda. Ushbu muammoni hal etishning eng samarali yo‘li sifatida mакtab va ta’lim muassasalarida mediata’lim va mediamadaniyatni rivojlantirish orqali amalga oshirish taklif etilmoqda. Hozirgi kunda dunyoda jadal rivojlanayotgan mediata’lim bu - pedagogikaning ommaviy axborot qonuniyatlarini o‘rganish asosida yoshlarni axborot xurujlaridan o‘zini himoya qilish va odamlar bilan muloqot qilish va o‘zligini namoyon qilishning zamonaviy shakllari bilan tanishtiradigan yo‘nalishdir.

Harbiy didaktika harbiy xizmatchilar ta’limini murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida o‘rganadi va bu jarayonning quyidagi asosiy funksiyalarini belgilaydi: ta’limiy (harbiy xizmatchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish); tarbiyaviy (harbiy xizmatchilarda o‘z Vatanining qurolli himoyachisi uchun zarur shaxsiy sifatlarni tarbiyalash); rivojlantiruvchi (harbiy xizmatchi shaxsini komil inson

sifatida rivojlantirish, yuzaga kelgan turli vazifalarni hal qilishga ijodiy yondashish malakalarini rivojlantirish) va ruhiy tayyorlash (harbiy xizmatchilarda xizmat vazifalarini bajarishga va jangovar vaziyatda muvaffaqiyatlari harakat qilishga ruhiy tayyorlikni shakllantirish).

Bo‘lg‘usi ofitserlarga ta’lim berish jarayonida kursantlar harbiy xizmat faoliyatini muvaffaqiyatlari amalga oshirishlari uchun tegishli bilim, ko‘nikmava malakalarga ega bo‘ladilar. Shu bilan bir vaqtda ularning tafakkuri rivojlanadi, irodasi va xarakteri chiniqadi, ma’naviyaxloqiy va jangovar sifatlari, hissiy-irodaviy turg‘unligi, jangovar xolatlarda aniq va ishonchli harakat qilish uchun ruhiy tayyorgarligi shakllanadi. Bunday vazifalarni amalga oshirish uchun harbiy ta’lim jarayonini tashkil etishga turlicha yondashuvlar mavjud. Ularni asosiyalarini ko‘rib chiqish lozim. Harbiy ta’limga davlat va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablarda harbiy ta’lim sohalari bo‘yicha o‘zaro muvofiqlik va mutanosiblik to‘la ta’minlanadi. Shu jihatdan harbiy ta’lim standartini belgilashda ta’lim jarayonining tarkibi, xuddi shu tarkibiy qismlarning mazmunini modernizatsiyalash, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo‘llash imkonini hisobga olingan.

Hozirgi vaqtda kino va videofilmlar, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar va turli teledasturlarning parchalari asosan ko‘rish tamoyilini amalga oshirish sifatida qo‘llaniladi. Biroq yoshlarga qaratilgan elektron, audiovizual, bosma medialarining didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlaridan ta’lim-tarbiyaviy yo‘nalishlardagi maqsadlarda yetarlicha foydalanimayapti, ammo ular insonning xulq-atvor hususiyatlarini shakllantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy axborot madaniyatini shakllantirish va yoshlarning axborot xulq-atvor hususiyatlarini rivojlantirishning yangi usullarini ishlab chiqish sharoitda albatta, media ta’limning o‘ziga hos pedagogik salohiyatini hisobga olish muhimdir.

Bugungi amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, pedagoglar va ota-onalar tomonidan olib boriladigan turli xil ta’limiy va tarbiyaviy ta’sirlarni yoshlar turlicha qabul qilishlari mumkin: ularga xushmuomalalik bilan muloqot qilish natijasida paydo bo‘ladigan ijobiy munosabatlardan so‘ng ular o‘zining xatti-harakati haqida o‘ylaydi va faollik ko‘rsatib, o‘zini takomillashtirish va rivojlantirishga intiladi. Ana shunda bunday tarbiya usuli haqiqatan ham uning shaxsiy ijobiy hususiyatlarini shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Agar ota-onalar, tarbiyachilar va pedagoglarning tarbiya usuli ular bilan yoshlar o‘rtasida ijobiy munosabat o‘rnatmasa, bu usul yoshlarning psixologik rivojlanishida ijobiy rol o‘ynamaydi va hatto ular tomonidan ma’lum bir qarshilikka ham uchrashi mumkin.

Yoshlarning darsdan tashqari mashg‘ulotlarida mediata’limdan foydalanishning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati shundaki, ularga o‘zini namoyon qilish uchun qo‘sishcha shart-sharoitlar yaratishda ham hisoblanadi, chunki hamma bola ham

o‘qish jarayonida o‘zini namoyon qila olmaydi. Bunday sabablar sirasiga yoshlarda etakchilik, turli qobiliyatlarini va o‘zlashtira olmaslik kabi muammolarni ko‘rsatish mumkin. Shu sababli, ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan turli sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda yoshlar o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy motivlar va ehtiyojlarlarini amalga oshiradigan ulkan imkoniyat bilan ta’milanadilar. Zamonaviy, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni to‘g‘ri tanlash ta’lim-tarbiya vazifalarini yanada to‘liq amalga oshirishga yordam beradi. Bu jarayonda eng ahamiyatli jihatlardan biri shundaki, yoshlarning o‘zlari ularni rivojlantirishning yangi shakllarni taklif qilishlari ham mumkin.

### XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalarida kursantlarni mediata’lim jarayonida internet bilan muloqot jarayonida xavfsizlikni ta’minlashning muhim qoidalari bilan tanishtirish zarur: barcha shaxsiy ma’lumotlarni (ismi, manzili, telefon raqami, elektron pochta manzili, ota-onalarning shaxsiy ma’lumotlari) oshkor qilmaslik; media tarmoqlardagi begonalarga ishonmaslik: Internetda har kim o‘zini kimligini ochiq ko‘rsatmasligi, aslida kimligini sir tutishi mumkin va hokazo.

Mediata’limning asosiy maqsadi sifatida yoshlarning mediasavodxonligini oshirish, ularda mediamadaniyatini shakllantirish, medialarning salbiy kontentlaridan himoya qilish, manipulyatsiya qurbaniga aylanib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va zamonaviy dunyoda axborotlarni ongli ravishda izlash, talqin qilish va qo‘llash, dunyoqarashini kengaytirish orqali kommunikativ ko‘nikmalarini va mediakompetensiyalarini rivojlantirish vazifalarni ta’limning oldiga qo‘yishdir. Buning uchun xar bir ta’lim maskanlarida bosqichma-bosqich mediata’limni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Зазнобина, Л.С. Медиаобразование в школе: как выжить в мире СМИ [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.mediaeducation.ru>.
2. Харламов, И.В. Педагогика / И.В. Харламов. – Минск. Высшая школа, 2004. – 195 с.
3. Komilova, N. A. Comparative Analysis of “Gender” Concept and Issues of Gender Field in English and Uzbek Languages.
4. Do’smatov, H. (2022, June). O ‘ZBEK TILIDA SO ‘Z TURKUMLARI TASNIFI MASALALARI. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 1, pp. 108-113).
5. Abdilkadimovna, K. N. (2021). Comparative And Linguocultural Analysis Of The Concept "Gender" In Uzbek And English Languages. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(06), 112-117.

6. Shodieva, G. N. Q., & Rakhmonova, M. A. Q. (2021). INFORMATION PERIOD CHANGE OF PEOPLE'S OUTLOOK, NEGATIVE AND POSITIVE IMPACT OF THE INTERNET. *Scientific progress*, 2(8), 563-566.
7. Do'smatov, D., & qizi Shodiyeva, G. N. (2022, May). O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO'ZLARNI TURKUMLARGA AJRATISH TAMOYILLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 8, pp. 770-774).